

**MURAKKAB NUQSONLI KAR BOLALARDA NUTQNI  
RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK,  
PSIXOLINGVISTIK ASOSLARI**

Muzaffarova Xayitgul Nesibovna

*Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti katta*

*o'qituvchisi*

**Erxonova Shaxnoza**

*Maxsus pedagogika, Defektologiya*

*(Logopediya) mutaxasisligi 2- kurs magistri*

**Annotatsiya** Ushbu maqolada karlar maktabi tuzilmasini takomillashtirish, undagi ta'lifmalarini faollashtirish muammosini va uni hal qilishda bolalar nutqini rivojlantirish rolini ko'rib chiqish zarurligi, kar bolalar nutqining rivojlanish darajasi va ularning ta'lifmalarini olishning mumkin bo'lgan hajmi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqining o'ziga xos xususiyati, bu bolalarning nutqini o'stirish, talaffuzga o'rgatish va eshitish qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha ko'pgina olimlarning olib brogan tadqiqot ishlari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so`zlar:** kar, kar bola, ta'lif, surdopedagogika, insonparvarlik, ta'lifni demokratlashtirish, o'quvchi, nutqini o'stirish, talaffuzga o'rgatish, eshitish qobiliyatini rivojlantirish.

**Annotation** This article discusses the need to improve the structure of the deaf school, the problem of activating the educational process and the role of children's speech development in solving it, the level of speech development of deaf children and their possible volume of learning. The specificity of the speech of these children is based on the research work of many scientists on the development of speech, pronunciation and hearing in these children.

**Keywords:** deaf, deaf child, education, deaf pedagogy, humanities, democratization of education, student, speech development, pronunciation training, hearing development.

Zamonaviy maktabda o'quv jarayoni ijtimoiy faol, ijodiy shaxsni tarbiyalash muammosini hal qilishga qaratilgan. Ommaviy maktablarni rivojlantirishning umumiy tendentsiyalarini hisobga olgan holda, kar bolalarni tizimli rivojlantirish va tarbiyalashni takomillashtirish har tomonlama insonparvarlik, ta'limga demokratlashtirish, o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashga tabaqalashtirilgan yondashuv tamoyillari asosida amalga oshiriladi. Kar bolalarning aqliy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ta'limga jarayonining barcha tarkibiy qismlarida ta'limga tuzatish yo'nalishi tamoyilini amalga oshirgan holda, kar bolalar maktabi umumiyligi va nutqni rivojlantirish, umumiy ta'limga va kasbiy rivojlanish darajasiga erishishga qaratilgan.

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'zgarishlar, o'quvchilarni tayyorlash sifatiga qo'yiladigan talablarning kuchayishi an'anaviy tizimga nisbatan majburiy ta'limga hajmini olish vaqtini qisqartirish uchun maktab tizimini takomillashtirish bo'yicha maxsus tadqiqotlarning ahamiyatini kuchaytirdi. (12 yil ichida kar o'quvchilar 9 yillik ta'limga olishadi). Bu nihoyatda murakkab muammoning rivojlanishi maktab bitiruvchilarining ishlab chiqarish sohasiga ertaroq jalgan etilishiga xizmat qiladi, uzluksiz ta'limga g'oyalarini amalga oshirishga yo'l ochadi. Maxsus maktabning asosiy vazifasi o'qitish jarayonida umumta'limga qoidalari, mehnat tarbiyasi va tarbiyaning har tomonlama ta'siri vositasida eshitish nuqsoni bilan bog'liq rivojlanishdagi nuqsonlarni korreksiyalashdan iborat. Shuningdek eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni og'zaki nutqqa o'rnatish ham maxsus muassasalarning muhim vazifalaridan biridir. Mazkur vazifalarni eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktabida amalga oshirilishi katta qiyinchiliklar bilan bo'g'liq bo'lib, bolalar rivojlanishining o'ziga hosligini hisobga olgan holda hal etiladi.

Karlar maktabi tuzilmasini takomillashtirish, undagi ta'limga muddatini qisqartirish yo'llarini izlash ta'limga jarayonini faollashtirish muammosini va uni hal qilishda bolalar nutqini rivojlantirish rolini ko'rib chiqish zarurligini keltirib chiqardi.

Surdopedagogikada kar bolalar nutqining rivojlanish darajasi va ularning ta'lim olishning mumkin bo'lgan hajmi o'rtasidagi bog'liqlik bir necha bor ta'kidlangan; bu bog'liqlikning amalga oshirilishi maktab ta'limi mazmunida o'z aksini topdi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqi ham o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, bu bolalarning nutqini o'stirish, talaffuzga o'rgatish va eshitish qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha ko'pgina olimlar, jumladan Surdopedagogikada possiya olimlari tomonidan kar bolalar nutqini rivojlantirishning eng muhim omili 50-60-yillarda tadqiq etila boshladi (S.A.Zykov, A.F.Pongilskaya, "B.D.Korsunskaya va boshqalar), talaffuzni o'rgatishning konsentrik usuli (F.F.Rau, N.F.Slezina) o'rjanila boshladi. Bolalar nutqining rivojlanishining sezilarli darajada oshishi ta'lim mazmunini boyitishga yordam berdi.

So'nggi o'n yillikda fan-amaliy mashg'ulotlardan keng foydalanishga asoslangan yangi didaktik tizim yaratilishi tufayli ( S.A. Zshsov, A.P.Gozova, E.P.Kuzmicheva, I.V.Koltunepko, E.N.Marshshovskaya, T.V.Suxova, D.F.Titova, E.N.Xoteeva va boshqalar), bolaning qoldiq eshitish funktsiyasini rivojlantirish va qo'llashga mutlaqo yangi yondashuvni ishlab chiqish. (T.A.Vlasova, E.P.Kuzmicheva), kar bolalarda kognitiv jarayonlarni o'rganish bo'yicha tadqiqotlar (T.A.Vlasova, A.P.Gozova, -T.B.Rozanova, K.I.Shif, N.V.Yapkova va boshqalar), maktab o'quvchilarining nutqini rivojlantirish sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarildi.

Kommunikativ tizimning kontseptual darajasini mustahkamlash va til o'rganish jarayonini faollashtirishga qaratilgan maktabgacha va o'rta maktab yoshidagi bolalarni qamrab olgan L.I.Noskova tadqiqoti, shu bilan birga, bu muammoni hal qilish zarurligini tasdiqladi.

O'bekistonda Milliy surdopedagogikada olib borilgan tadqiqotlarda U.Yu.Fayziyeva, N.H.Dadaxo'jayeva, F.J.Alimxodjayeva, N.Sh.Bekmurodov, X.M.Gaynutdinov, D.R.Nazarova, F.U.Qodirova, Z.N.Mamarajabova, R.Rustamova eshitishida muammosi bolgan o'quvchilar ta'lim-tarbiyasi jarayonini takomillashtirish orqali ularning ijtimoiy moslashuvlari darajasini ko'tarishning yoli

va vositalari asoslab beriidi<sup>1</sup>. Maxsus ta'lim sohasida eshitishida nuqsoni boigan o'quvchilar nutqini rivojlantirish, maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirish masalalari umumiy tarzda o'rganilgan, eshitishida muammosi bo'lgan o'quvchilar ta'lim-tarbiyasi jarayonini takomillashtirish orqali ularning ijtimoiy moslashuvlari darajasini ko'tarishning yo'l va vositalarini asoslab berish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlari diqqatga sazovordir<sup>2</sup>.

Biz o'rganiyaotgan muammo murakkab nuqsonli kar bolalar yakka kamchilik bilan emas balki bir necha kamchiliklar bilan keladi, shuning uchun bunday o'quvchilar nutqini rivojlantirish muammosini maxsus o'rganish butun ta'lim jarayonini takomillashtirish uchun ayniqsa dolzarbdir.

Shunday qilib, ta'lim jarayonini faollashtirish, mакtab o'quvchilarining nutqini rivojlantirishning ularning muvaffaqiyatli o'qishi uchun ahamiyati asosida ta'lim olish vaqtini qisqartirish uchun kar bolalarni o'qitishning korreksion tizimini takomillashtirish zaruriyati kelib chiqadi.

Murakkab nuqsonli kar o'quvchilar nutqni rivojlantirish ustida ishslash albatta oson ish emas. Kar bolaning rivojlanish xususiyatlarini inobatga olgan holda, tadqiqot shakllanishiga qaratilgan kar o'quvchilarining nutq qobiliyatini rivojlantirish, til tizimini bolalar tomonidan o'zlashtirish, asosan, nutq faoliyatini amaliy o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladi.

Nutqni rivojlantirishning kerakli yondashuvi, nafaqat nutq faoliyatini shakllantirishni, balki nutq amaliyotini tashkil etibgina qolmay, balki uning barcha o'ziga xos xususiyatlari bilan nutq faoliyatini o'rgatishni nazarda tutadi. Nutq faoliyatini o'rgatish muloqotga bo'lgan ehtiyojni yaratish, o'quvchilarni batafsil bayon dasturini aniqlashga o'rgatish; u vaziyatga adekvat bo'ladigan til aloqa vositalarini o'rgatishni o'z ichiga oladi; og'zaki nutq asosida fikrni ifodalashning

<sup>1</sup> Fayzieva U.Yu. Zaif eshituvchilami savodga tayyorlash va savod o'rgatish Ped. fan. nom z. dis. ... avtoref. ~ Toshkent: TDPI. 1994. - 18 b s

<sup>2</sup> F.U Qodirova. Boslang'ich sinf kar va zaif eshituvchi o'quvchilar nutqini shakllantirish.: Ped. fan. nomz. dis. Avto rcf.... Toshkem :TDPU\ 2006. - 20 b.

og'zaki va yozma usullarini shakllantirishga doir ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish kabi vazifalarni hal qiladi.

Kar bolalarda nutq turlarini shakllantirish bo'yicha psixologik, defektologik va metodik adabiyotlarni tahlil etishda biz shunday fikrga keldikki, bolaning rivojlanishida eshitishning ahamiyati katta bo'lib, eshitishsiz nutqni idrok qilish mumkin emas.

Nutq - bu murakkab ruhiy faoliyat bo'lib, u ruhiy jarayonlarning tarkib topishiga va bolaning umuman barkamol bo'lib o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Nutq eshituv organlari vositasi bilan idrok etishga asoslangan bo'lib, atrofdagilarga taqlid qilish qo'li bilan rivojlanib boradi. Og'zaki nutqning shakllanishida eshituv analizatori, nutqni harakatga keltiruvchi analizatori, nutqni xarakatini boshqaruvchi analizator ishtirok etadi. Nutqni harakatga keltiruvchi analizator eshituv analizatori bilan mahkam bog'langan holda ishlaydi. Eshituv analizatorining rivojlanish darajasi esa ko'p jihatdan talaffuzga bog'liq.

Bola nutqining o'sib borishi tovushlar talaffuzi, fiziologik va fonematik eshitishning kamol topib borish darajasi bilangina xarakterlanib qolmay, balki eng muhim o'z nutqi va atrofdagilar nutqidagi so'zlarning tuzilishini, tovush tarkibini farqlay bilish qobiliyati bilan ham xarakterlanadi. So'z tarkibini anglab olishdan iborat bu qobiliyat grammatik va leksik komponentlarining rivojlanishida ham muhim ahamiyatga ega. Sharq mutaffakkirlaridan Ibn Sino ham nutq haqida shunday deganlar: -“Tabiatning insonlarga i'nom etgan jonlaridan yana biri inson nutqidir. Inson o'zining ana shu nutqidagi tovushning ohanglari orqali o'z hissiyotlarini izhor etadi”.

P.M.Boskis o'zining “Uchitelyu o detyx s narusheniyami sluxa” nomli kitobida nutqning rivojlanishida eshitishning ahamiyati, bolalarning eshitish qobiliyatini tekshirish yo'llari, zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirish metodikalarini keng va tushunarli tarzda yoritib bergan.

S.A.Zikovning “Metodika obucheniya gluxix detey yaziku” o'quv qo'llanmasida esa xar xil kar bolalar mакtabida nutqning ahamiyati, tilga o'qitish

prinsiplari, daktil nutqini o'rgatish metodlari va bolalarni og'zaki nutqini rivojlanadirish yo'llari yozilgan. F.F.Pay "Ustnaya rech gluxix" kitobida sog'lom va eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqlarini o'zaro solishtirib, bu bolalar nutqining o'ziga hos xususiyatlarini, nutqning mexanizmlari, vazifalari va metodlari haqida yozib o'tilgan.

Uning fikricha bu nutq – a'zolaridan chiqayotgan og'zaki nutqni ko'rish idrokidir. Bu narsa gapirishga oson. Ammo, uni boshdan kechirmoq kerakki, bu yerga qanchalik diqqat zarurligini anglamoq uchun. Shu bois, bu toifa bolalar normal eshituvchi bolalardan ko'ra tezroq va ko'proq charchaydi. Bu bolalarga yordam tarzida daktil nutqdan foydalanish tavsiya etiladi, bu usul orqali bolalar idroki yengillashib, o'quv materiallarini egallashlari osonlashadi.

Daktil nutqi kar bolalar ta`lin-tarbiyasining dastlabki yillarda keng qo'llanilishini adabiyotlarida keng yoritib bergen.

I.F.Slezinaning "Primenenie texnichiskix sredstv v obuchenii gluxix shkol'nikov proiznosheniyu" nomli maqolasida ovoz kuchaytirgich apparaturalardan foydalanish kar o'quvchilarni talaffuzga o'rgatishda katta ahamiyatga egaligi haqida yozib o'tilgan.

F.F.Pay, V.I.Bel'tyukovning "Metodika obucheniya gluxix ustnoyrechi" nomli kitobida tovushlarni nutqqa qo'yish, tovushlarni nutqda mustaxkamlash va boshqa tovushlardan farqlashga o'rgatish va nutqdagi barcha nuqsonlarni bartaraf qilish qo'llari yozilgan.

S.A.Zikov o'z asarlarida tadqiqot natijalarini yozar ekan, u bolalarda nutqni ularning hayotiy ehtiyojlarini hisobga olib, shakllantirish kerak degan fikrni ilgari suradi. Til insonlarning mehnat faoliyatini yuzaga kelib, shakllana borgan. U insonlarning fikr almashinushi, ong qurollari sanaladi.

E.P.Kuzmichyovoning "Razvitiye chehevogo sluxa u gluxux" nomli asarida, eshitish idrokini biz karlar nutqiy faoliyatiga ta'sir etuvchi va shu nutqiy faoliyat imkoniyatlaridan biri sifatida ko'rib chiqamiz deb yozadi.

M.N.Nikitina taxriri ostida “Surdopedagogika” darslarida kar o’quvchilarni o’qitish metodlari yoritilgan. Mazkur darslikda metodlarning tizimini takomillashtirish yo’llari ko’rsatilgan.

Xulosa qilib aytganda biz o’rganayotgan mavzumiz juda muhim masalalardan biri bo’lib hisoblanadi. Albatta kar bolalar nutqini rivojlantirar ekanmiz, ulardagi barcha psixologik va pedagogik xususiyatlarni e’tiborga oligan holda yondoshish zarur.

### **Adabiyotlar**

1. Обучение, воспитание и развитие детей с нарушениями слуха. Часть 1. Основы сурдопедагогики: Учебное пособие / Сост. Е.Н. Горина, О.В. Соловьева, О.И. Суслова – Саратов: ИЦ «Наука», 2019. – 91 с.В.Д.Корсунская “Vospitaniye gluxogo doshkolnika v seme” –М;
2. FayzievaU .Yu. Zaif eshituvchilami savodga tayyorlash va savod o'rgatish Ped. fan. nom z. dis. ... avto ref. ~ Toshkent: TDPI. 1994. - 18 b s
3. F.U Qodirova. Boslang'ich sinf kar va zaif eshituvchi o ‘quvchilar nutqini shakllantirish.: Ped. fan. nomz. dis. Avto rcf...- Toshkem :TDPU\ 2006. - 20 b.
4. Muzaffarova, X. (2021). BOLALARDA UCHRAYDIGAN NUQSONLAR VA ULARNING KELIB CHIQISH SABABLARI. *Scienceweb academic papers collection*.
5. Muzaffarova, X. (2021). BOLALAR PSIXIKANING RIVOJLANISHINI BELGILAYDIGAN OMILLAR. *Scienceweb academic papers collection*.
6. Muzaffarova, X. (2020). MAXSUS YORDAMGA MUHTOJ BOLALARNI TA'LIMGA JALB ETISHDA UCHRAYDIGAN MUAMMOLAR. *Scienceweb academic papers collection*.